

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

O'zbek va ingliz tillaridagi ayrim antroponimlar semantikasi masalalari .....	444
<b>I.V.Xoldarova, X.A.Erg'oziyeva</b>	
Fonetikani o'qitish orqali o'quvchilar nutqini shakllantirish .....	448
<b>M.Kaxarova, N.Yunusaliyeva</b>	
O'zbek va nemis tillarida bayram bilan bog'liq leksik birliklar tadqiqi .....	455
<b>D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova</b>	
Iboralarning lingvopoetik xususiyatlari (Siddiq Mo'min she'riyati misolida).....	458
<b>O.K.Rakhmatova, G.N.Davlyatova</b>	
The structure of speech acts in various types of discourse .....	462
<b>X.M.Sotvaldieva</b>	
Paremiologiya fan sifatida .....	467
<b>A.E.Botirova</b>	
Grammatik terminlar lug'atini yaratishda muammo va yechimlar .....	473
<b>R.Radjabov</b>	
Orfoepiya va uning normalari to'g'risida fikr-mulohazalar .....	478
<b>M.N.Raxmanova</b>	
Texnik oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun ingliz tili darslarida kasbiy matnlarni tanlash usullari .....	482
<b>U.B.Almaz, O.X.Barziyev</b>	
Milliy uyg'onish davri Farg'ona vodiysi she'riyati va Ozarbayjon adabiyotidagi mazmuniy mushtarakliklar .....	486
<b>D.Sh.Islomov</b>	
His-tuyg'uning paydo bo'lishi, uning asosiy holatlari psixolog olim Kerroll Ellis Izard talqinida .....	493
<b>M.M.Abdujabborova, M.M.Yakubbayev</b>	
Talabalarga ingliz tilini o'qitishda aqliy hujum metodini qo'llashning o'rni (nofilologik ta'lim yo'nalishi misolida).....	498
<b>G.A.Saydaliyeva</b>	
Geshtaltlarning turli sinonimik lug'atlarda va kontekstda ifodalanishi.....	501
<b>G.N.Isakova</b>	
Fransuz tilidagi muqaddas matnlarga oid qanotli iboralarning semantikasiga doir.....	506
<b>J.J.Egamberdiyev</b>	
Lug'at zamon va davr elchisi .....	511
<b>Sh.Sh.Zarmasov</b>	
Ot turkumi ma'no guruhini modellashtirishning lingvostatistik tahlili .....	515
<b>G.P.Nazarova, F.B.Alimova</b>	
"Harry potter" turkumidagi asarlarda neologizm va okkazonalizmlarning qo'llanilish tadqiqi.....	522
<b>S.A.Mannonova</b>	
Tijoriy yozishmalarda kommunikativ-pragmatik intensiyalarining o'xshash va farqli jihatlari .....	526
<b>N.K.Ergasheva</b>	
Dynamic interaction of foreign languages: factors of development in a global context .....	529
<b>A.K.Usmonov</b>	
Monologik nutqda bog'lovchilarning pragmatik xususiyatlari .....	533
<b>N.K.Abbasova</b>	
Evaluating the impact of digital tools in classrooms and online learning platforms .....	538
<b>D.G.O'rinboyeva</b>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga ingliz tilini o'rgatish xususida ayrim mulohazalar .....	542
<b>N.K.Abbasova, M.Abdulkhakimova</b>	
Promoting oral communication through reading integration.....	545
<b>Д.Ш.Рахмонова, Д.У.Ашурова</b>	
Когнитивный подход к анализу художественного текста .....	550



UO'K: 81`33

**“HARRY POTTER” TURKUMIDAGI ASARLARDA NEOLOGIZM VA OKKAZIONALIZMLARNING QO‘LLANILISH TADQIQI****ИЗУЧЕНИЕ УПОТРЕБЛЕНИЯ НЕОЛОГИЗМОВ И ОКАЗИОНАЛИЗМОВ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ СЕРИИ «ГАРРИ ПОТТЕР»****A STUDY OF THE USE OF NEOLOGISMS AND OCCASIONALISMS IN THE WORKS OF THE "HARRY POTTER" SERIES****Nazarova Gulbahor Pirmanovna<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Buxoro davlat universiteti, f.f.f.d, (PHD), dotsent[ORCID ID](https://orcid.org/0000-0003-1719-2224) 0000-0003-1719-2224**Alimova Ferangizbonu Baxodur qizi<sup>2</sup>**<sup>2</sup>Buxoro davlat universiteti magistr[ORCID ID](https://orcid.org/0009-0001-6748-3030) 0009-0001-6748-3030**Annotatsiya**

Har bir tilda takomillashish va kengayish uchun ulkan imkoniyatlar mavjud. Til rivojlanishining eng katta salohiyati uning lug'at boyligidir. Barcha tillarning leksik makro maydonini yangi shakllar bilan to'ldirishda neologizmlar va okkazional so'zlarning ahamiyati katta. Maqolada neologizmlar va okkazionalizmlarning tarjima jarayonidagi o'ziga xos xususiyatlari ingliz tilidan o'zbek tiliga bilvosita o'g'irilgan badiiy asar misolida o'rganildi. Lingvistik tahlil uchun asos sifatida Joanna Ketling Roulingning "Harry Potter" kitoblari olindi. Tarjima jarayonida to'g'ri tanlangan ekvivalent tarjima sifatini belgilaydi. Negaki mazmunning asl mohiyatini yo'qotmasdan uni yetkazib berish tarjimonning vazifasidir. Nazariy adabiyotlarni tahlil qilish mobaynida shuni ta'kidlashga imkon beradiki, bugungi kungacha neologizmlar va okkazionalizmlarni o'rganishda umumiy tushunchani shakllantirish va chuqurlashtirish uchun juda ko'p ishlar qilingan. Biroq, ularning ingliz tilidan o'zbek tiliga o'g'irilishidagi holatlar kabi qator masalalar haligacha tegishli yechimini topgani yo'q. Shuning uchun ushbu maqolada yangi so'zlarning qay darajada mukammal tarjima qilinishiga alohida e'tibor beradi. Tadqiqot davomida ta'riflash, lingvistik kuzatish va tavsiflash usuli; tadqiqot mavzusi bo'yicha lingvistik adabiyotlarni tahlil qilish; uzluksiz namuna olish hamda kontekstli tahlil usullaridan foydalanildi.

**Аннотация**

Каждый язык имеет огромный потенциал для улучшения и расширения. Самый большой потенциал развития языка – это его словарный запас. Большое значение в наполнении лексической макропространства всех языков новыми формами имеют неологизмы и окказиональные слова. В статье особенности неологизмов и окказионализмов в переводческом процессе изучались на примере литературного произведения, косвенно переведенного с английского на узбекский язык. За основу лингвистического анализа были взяты книги Джоанны Кэтлинг Роулинг о Гарри Поттере. Правильно выбранный в процессе перевода эквивалент определяет качество перевода. Потому что задача переводчика передать содержание, не потеряв его первоначальной сути. В ходе анализа теоретической литературы можно отметить, что до сегодняшнего дня проделана большая работа по формированию и углублению общих представлений в изучении неологизмов и окказионализмов. Однако ряд вопросов, например, случаи их перевода с английского на узбекский, до сих пор не решены должным образом. Поэтому в этой статье особое внимание уделяется тому, насколько хорошо можно перевести новые слова. Метод описания, лингвистическое наблюдение и описание в ходе исследования; анализ лингвистической литературы по теме исследования; использовались методы непрерывной выборки и контекстного анализа.

**Abstract**

Every language has enormous potential for improvement and expansion. The greatest potential of language development is its vocabulary. Neologisms and occasional words are of great importance in filling the lexical macro area of all languages with new forms. In the article, the peculiarities of neologisms and occasional words in the translation process were studied on the example of a literary work indirectly translated from English to Uzbek. Harry Potter books by Joanne Kathleen Rowling were taken as a basis for linguistic analysis. A correctly selected equivalent during the translation process determines the quality of the translation. Because it is the task of the translator to deliver the content without losing its original essence. During the analysis of theoretical literature, it can be noted that until today, a lot of work has been done to form and deepen the general understanding in the study of neologisms and occasional words. However, a number of issues, such as the cases of their conversion from English to Uzbek, have not yet been

## TILSHUNOSLIK

adequately resolved. Therefore, this article pays special attention to how well new words can be translated. Method of description, linguistic observation and description during research; analysis of linguistic literature on the research topic; continuous sampling and contextual analysis methods were used.

**Kalit so'zlar:** neologizm, okkazonalizm, lingvistik makromaydon, leksik tizim, ekvivalentlik, tarjima metodlari.

**Ключевые слова:** неологизм, окказионализм, языковое макрополе, лексическая система, эквивалентность, способы перевода.

**Key words:** neologism, occasionalism, linguistic macrofield, lexical system, equivalence, translation methods.

## KIRISH

Til bu har bir millatning o'zligini va ma'naviy olamini baholab beruvchi ko'zguvchi. Hadislarda insonning husni va zebu ziynati uning tili orqali namoyon bo'lishi aytib o'tilgan.[1,6] Darhaqiqat, insonning ma'naviy tomonlari yetuk shaxs bo'lib kamol topishida til yetakchi o'rin tutadi. Tilning ajralmas qismi sanalgan lug'at muntazam ravishda o'zgarib turadi. Bu kabi o'sish-rivojlanishda boshqa tillarning ta'siri katta. Ya'ni o'zidan tashqari boshqa tillardan til va nutq birliklari, masalan, so'z yoki tovush olmaydigan birorta ham til mavjud emas. So'nggi yillarda leksik muloqotning oshishi natijasida tilimizga ko'p miqdorda neologizmlar va okkazonalizmlar paydo bo'ldi. Neologizmlar bular bo'yoqdorlik jihatdan yangilikka ega bo'lgan so'zlardir. Ular avval ma'lum bir shaxs nutqida hosil bo'ladi: masalan, ijodkor o'zining asarida o'zi yaratgan yangi termin va frazalarni qo'llasa, ular okkazonal so'zlar deb nomlanadi. Yakka nutq doirasidan chiqib, jamiyat tomonidan qo'llaniladigan bo'lsa, u holda ular umumtil neologizmlari deb ataladi. Bugungi davrda tilshunoslar e'tiboridan chetda qolgan fanning biror sohasi yo'qdir. Shunga ham qaramay yangi so'zlarning muammosi: neologizmlar va okkazonalizmlar tilshunoslikning boshqa sohalariga singari tadqiqotchilarimizning fikrini jalb qilmoqda. Olib borilgan tadqiqotlarda ingliz tilidagi muallif neologizmlarining o'zbek tiliga tarjima qilinishidagi qulayliklar va muammolari yoritilgan.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqot uchun ushbu asarning tanlanishidan asosiy maqsad shundaki asar muallifi butun hikoya davomida ko'plab yangi so'zlardan foydalangan va ularning aksariyat qismi sehr-jodu olamiga mansubdir. Amerikalik bolalar yozuvchisi bo'lgan Dr.Seuss fantastika hayotimizning muhim qismi ekanligini ta'kidlab o'tgan. Negaki "Harry Potter" orqali ifodalangan sehrli olam bizga nafaqat Hogvarts xiyoboniga sayohatga etadi, balki hayot qiyinchiliklari bilan qanday kurashishni ham o'rgatadi.[2,10]Tadqiqot ishimizning qulayligi va afzalligi shundan iboratki, muallif aksariyat yangi so'zlarni 2 bo'g'indan tashkil etib tuzgan va boshqa sohalaridagi terminlarga qaraganda tushunishi ancha yengillashirilgan. Tahlil mobaynida neologizmlarning qay usulda tarjima qilinishiga ham alohida e'tibor qaratildi. Ma'lumki, quyidagi metodlar yangi so'zlarning boshqa tillarda muqobil variantini berishda ko'maklashadi:

- Transliteratsiya- tarjima mobaynida so'zlarni grafik shaklini o'zgartirmasdan ifodalash usulidir.
- Transkripsiya- so'zning orfografik shakli o'zgarsa ham, fonetik shaklini o'zgartirmasdan bera olish usulidir.
- Kalkalash- muqobili mavjud bo'lmagan birliklarni aslyatdagidek so'zma-so'z tarjima qilish usuli.
- Tasviriy usul- yuqoridagi uchala usul ham yordam bermaganda, tushunchaning asl mohiyatini berish uchun kontekst asosida tarjima qilish usulidir.[3,4]

## NATIJA VA MUHOKAMA

"Harry Potter" bu Joanna Roulingning 7 kitobdan iborat shohona asaridir. Har bir kitob 70000-300000gacha so'zdan tashkil topgan va quyidagi jadval asosida bunga guvoh bo'lish mumkin: [4,13]

Kitoblar	So'zlar miqdori
Harry Potter va hikmatlar toshi	77.729 ta
Harry Potter va maxfiy hujra	85.667 ta
Harry Potter va Azkaban mahbusi	107.561 ta
Harry Potter va Alanga kubogi	191.328 ta
Harry Potter va Feniks jamiyati	260.439 ta

Harry Potter va tilsim shahzodasi	169.869 ta
Harry Potter va ajal tuhfalari	198.813 ta

Tadqiqotning ushbu qismida “Harry Potter” romanida qoʻllanilgan bir nechta neologizmlarning tahlili berilgan. Tahlil uchun romanning 1-kitobi “Harry Potter va hikmatlar toshi” qismi tanlab olindi. Muallif neologizmlarining tushunarli ifodalanishi uchun mazkur soʻzlar qoʻllanilgan kontekst “Harry Potter” romanining ingliz tilidan oʻzbek tiliga bilvosita oʻgʻirilgan namunasidan olindi. Maʼlumotlarni tahlil qilish mobaynida yangi soʻzlarning yasash usuli, lugʻatda mavjud boʻlsa uning lugʻaviy maʼnosi va asarda qoʻllanilgan maʼnosi tushuntirib beriladi.

*Umid qilamanki, “Griffindor”ga qabul qilishadi meni. Aytishlaricha, eng zoʻr fakultet “Griffindor” ekan. Dambldor ham shu fakultetni tamomlagan emish. Fikrimcha, “Ravenklo” ham yomon emas...* [5,126]

Ushbu kontekstda qoʻllanilgan “Griffindor” soʻzi Joanna Roulingning oʻzi yaratgan neologizmi boʻlib, maʼnosi “Xogvars maktabidagi 4 ta uylardan birining nomi”. Ushbu soʻz transliteratsiya usuli asosida oʻzbek tiliga oʻgʻirilgan va uning strukturasi eʼtibor berib qarasa, aslida “**Griffin**” lotincha soʻz boʻlib, “boshi shersimon afsonaviy hayvon” maʼnosini bildiradi. Shunindak, “**dor**” soʻzi esa fransuzcha “oltin” boʻlib, bu ikkala soʻzlarning qoʻshilishidan muallif yangi tushuncha yaratib, sher va oltinni ramziy maʼnoda qoʻllagan. Demak, mazkur neologizm nafaqat boshqa tillardan soʻz olish bilan, balki qoʻshma ot yasash usuli yordamida yuzaga kelgan.

*- Magllar kundalik yumushini sehr-jodusiz qanday bajarar ekan, hayronman, - vaysadi u, ikkala tomoni doʻkon qatoridan iborat gavjum tor koʻchaga olib chiqadigan eskalatorga tirmashib.*[5,79]

“Magl” soʻzi ingliz tilida Oksford lugʻatida “Muggle” deb beriladi va “maʼlum bir sohada yoki ishda qobiliyati boʻlmagan insonlar” uchun ishlatiladi. Romanda muallif ushbu soʻzga qoʻshimcha maʼno berib, “sehrli kuchi yoʻq inson” deb yoritgan. Mazkur soʻz qoʻshma ot yasash usuli yordamida hosil qilingan va transkripsiya metodi orqali oʻzbek tiliga tarjima qilingan.

Yaʼni:

“mug”(Oksford lugʻatida berilishicha “mug” soʻzi “ahmoq va aldash oson” boʻlgan insonlarga ishlatiladigan soʻz)

“-le” (qoʻshimcha, suffiks)

*Qiz Garrining qoʻlidagi sehrli tayoqchani tortib oldida, qulfga urib, pichirladi.*

**- Alloomora!**

*Qulf shiq etib, eshik ochildi. Bolalar bir-birini turtganacha, xonaga kirib, eshikni ichkaridan yopishdi-da, quloqlarini unga bosishdi.* [5,189]

Asl nusxasida “Alohomora” deb berilgan soʻz oʻzbek tiliga oʻgʻirilganda transkripsiya usulidan foydalanib, talaffuzimizga moslashtirilib “Alloomora” deb berilgan. Maʼnosiga toʻxtalsak, kitobda bu atama qulfni ochish uchun aytilgan duo maʼnosida kelgan. Tuzilishi jihatdan bu soʻz qoʻshma ot boʻlib, 2ta soʻzning birikuvidan hosil boʻlgan. Yaʼni:

**Aloha** – Gavayilik soʻz boʻlib, “xayr” degan maʼnoni bildiradi.

**Mora** – Lotincha soʻz boʻlib, “toʻsiq” degan maʼnoni anglatadi.

Muallif bu ikkala soʻzni birikib, qulfni ochish holatini xuddi toʻsiqqa xayr deyish holatiga oʻxshatib yangi tushuncha yaratgan.

*-Maktab kubogini eng koʻp ball toʻplagan slizerinchilar olishadi, albatta. Soʻnggi oʻyinda ishtirok etmaganing uchun “Ravenklo” kvidish jamoamizni pachoq qildi. Hechqisi yoʻq, ammo mazali ovqatga toʻyish huquqimiz daxlsiz qolgan.* [5,358]

“Ravenklo” soʻzi transkripsiya usuli yordamida oʻzbek tiliga aslida ingliz tilidagi “Ravenclaw” soʻzidan oʻgʻirilgan. Bu ham xuddi Griffindor kabi Xogvarsdagi uylardan birining nomi. Ushbu soʻz ham ikki qismdan iborat boʻlib, aslida “raven” yaʼni qargʻa boʻlgan uy nazarda tutilishi kerak edi, ammo bu qush yomon xislatga ega ekanligi sabab, mazkur uy keyinchalik burgutga almashtirilgan.

#### XULOSA

Ushbu tadqiqot natijalaridan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, tilning barcha imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda yaratilgan “Harry Potter” romani neologizm va okkazionalizmlarga boy boʻlgan asardir. “Harry Potter va Afsonaviy Tosh” qismidan namuna qilib keltirilgan neologizmlardan shuni anglab yetish mumkinki, yozuvchi ancha ilgari yaratilgan soʻzlarni

---

**TILSHUNOSLIK**

---

qayta tikladi, ularga qo'shimcha ma'no kiritdi va mazkur so'zlarga yangi hayot bag'ishladi. Joanna Roulingning mazkur asarida neologizmlarni yaratish borasidagi sa'y harakatlari qanchalik murakkab bo'lmasin, ularni rus va o'zbek tillariga tajima qilish jarayoni ham shunchalik mushkuldir. Shuni aytib o'tish joizki, asar o'zbek tiliga bilvosita o'girilganligi sabab, balki muallif neologizmlarining fonetik hamda grafik tuzilishida o'zgarishlar kuzatilmoqda.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ozodov, S. (2018). Hozirgi o'zbek tilida neologizmlar.-Toshkent
2. Boudraf, W. (2020). Investigating Neologisms in J.K. Rowling's Harry Potter: Applying a Morphological Theory by W.N. Francis.
3. Irgasheva, SH. (2022). Internet diskursdagi neologizmlarni tarjima qilish xususiyatlari.-Toshkent
4. Martinez, M. C. (2014). Neologism in Harry Potter books.
5. Dolimov, SH. Z. (2018). Garri Potter va Afsonaviy Tosh.-Toshkent